



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIKA
SOHASIDAGI TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2024-yil 13-14-noyabr

Urganch shahri

U 89

"Globallashuv sharoitida pedagogika sohasidagi tadqiqotlar: muammo va yechimlar "
Abdullayev; tuzuvchilar H. Yunusxo‘jayev, S. Allanazarov, H.Yusupov, N.Yakubova,
Z.Allanazarova, Sapayeva G– Xorazm: Ziyo scientific centr, 2024

Pedagogik fanlarini zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o‘qitishning muammo va echimlarini o‘rganish, talabalarga zamonaviy o‘qitish usullarini tanitish, shuningdek, Pedagogik fanlarining nazariyasi va amaliyoti o‘rtasidagi cheklanuvchanliklarni kamaytirish uchun hamkorlikni rivojlantirishni hamda psixologiya va pedagogika fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash, o‘qitish usullarini rivojlantirish, zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishni, ularda ilmiy va amaliy ishlar olib borishni, hamkorliklarni rivojlantirishni maqsad qiladi. Anjuman – Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, Til va adabiyot sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar, Yoshlar pedagogik kompetentsiyasini va tafakkurini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari, Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb muammolari, Uchinchi renessans taraqqiyotida pedagogik tadqiqotlar yo‘nalishlarida ish olib borgan.

**Mas’ul
muharrir:**

D.N.Abdullayev – t.f.d., dotsent.

**Tahrir hay’ati
raisi:**

F.R.Madraximova - p.f.d. (DSc). dotsent.

**Tahrir hay’ati
a’zolari:**

Sh.B.Samanova – falsafa fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent.

U.R.Xo‘jamuratov – tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent.

E.B.Nabiyev - tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent.

X.Matyoqubov-fizika-matematika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori

Saidov H- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

U.Abdullayev – t.f.d., professor

U.A.Sheripov – t.f.n., dotsent.

© **Globallashuv sharoitida pedagogika
sohasidagi tadqiqotlar: muammo va
yechimlar**

© **Ziyo scientific centr**

improvement of activities based on competency approach. Conference Ural,1(1), 289-293.

10.. Alimzhanovna, D. Kh., & Kyzi, I. Z. U. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on the competence approach (in the example of pedagogy of higher educational institutions) Science and innovation, 2(Special Issue 5), 290-294

11. Khalmatova, D.A (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education Teacher, 1(7), 253-262

13. Тохинова Лейли Рустамовна Адаптивная образовательная среда как ресурс гуманизации образования в вузах

13. Sharaxmatova A.K., Musurmanov R. Kredit-modul tizimida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish davr talabi / "Muqallim xam uzluksiz bilimdenidiri" ilmiy metodologik jurnali 1/2022. 99-103.

14. Шарахматова А.К., Мусурманов Р. "Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения" / "Образование и наука в XXI веке" международный научный журнал 22(4)/2022. 898-904.

15 Шарахматова А.К. Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения / "Муqallim xam uzluksiz bilimdenidiri" научно-методический журнал 5/3.2022. 100-103

UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZORATNI TASHKIL QILISHNING ILMIY ASOSLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrası
O'qituvchi **Xalmatova Dilobad Alimjanovna**
Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabalari
Abduvaliyeva Shahzoda Farhod qizi
Teshaqulova Baxtigul Shovqiddin qizi

Annotatsiya.Maqolada uzluksiz ta'limda pedagogik nazoratning ahamiyati, uning turli shakllari va zamonaviy metodlari, shuningdek, ushbu jarayonni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Maqsad – ta'lim sifatini oshirish uchun samarali nazorat mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etishning dolzarb jihatlarini yoritishdir.

Scientific basis of organization of pedagogical control in continuing education.

Abstract. The article analyzes the importance of pedagogical control in continuous education, its various forms and modern methods, as well as ways to improve this process. The goal is to clarify the actual aspects of the identification and implementation of effective control mechanisms to improve the quality of education.

Научные основы организации педагогического надзора в непрерывном образовании

Аннотация: В статье анализируется значение педагогического контроля в непрерывном образовании, его различные формы и современные методы, а также пути совершенствования этого процесса. Цель – прояснить актуальные аспекты выявления и внедрения эффективных механизмов контроля повышения качества образования.

Tayanch so'zlar:Uzluksiz ta'lim, pedagogik nazorat, nazorat turlari, metod, vosita, kuzatish, pedagogik monitoring, pedagogik jarayon, diagnostika qilish, baholash va bashorat qilish,korreksiya.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining sifatini oshirish va kadrlar malakasini uzluksiz rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Uzluksiz ta'lim – insonning hayoti davomida doimiy o'qib-o'rganishini ta'minlaydigan, shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladigan jarayondir. Ushbu tizimda ta'limning samaradorligini oshirish uchun pedagogik nazorat muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nazorat ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda tahlil qilish, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon ta'lim beruvchi va oluvchilar o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash, sifatli ta'lim uchun zarur bo'lgan tahliliy va korreksion faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli nazorat faqatgina baholash vositasi bo'lib qolmay, balki ta'lim jarayonini boshqarishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi. Pedagogik nazorat uzluksiz ta'limda nafaqat nazorat-tahlil funksiyasini bajaradi, balki motivatsiya beruvchi omil sifatida ham ta'lim oluvchilarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Ushbu maqolada nazorat jarayonining innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi va amaliyotda qo'llanilishi muhokama qilinadi.

Uzluksiz ta'limda pedagogik nazorat — ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda baholash va nazorat qilishni anglatadi. Bu nazoratning asosiy maqsadi — o'quvchilar rivojlanishini kuzatish, o'qitish sifatini oshirish va ta'lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishdir.

Pedagogik nazoratning asosiy funksiyalari:

1. Diagnostik funksiyasi: O'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash va kelajakdagi o'qitish strategiyasini belgilash.
2. Baholash funksiyasi: O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholab, ularning ta'lim dasturiga muvofiqligini aniqlash.
3. Nazorat funksiyasi: Ta'lim natijalari va jarayonini muntazam kuzatib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.
4. Rivojlantiruvchi funksiyasi: O'quvchilarni motivatsiya qilish va mustaqil o'qishga undash.
5. Korreksion funksiyasi: O'quvchilarning kamchiliklarini aniqlab, o'qitish usullarini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish.

Pedagogik nazorat turlari:

Joriy nazorat: Dars jarayonida o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirishi kuzatiladi.

Oraliq nazorat: Ma'lum bir mavzu yoki bo'lim yakunida o'quvchilarning bilimlari tekshiriladi.

Yakuniy nazorat: Semestr yoki o'quv yili oxirida umumiy natijalar baholanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish: O'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil baholashga o'rganadi.

Pedagogik nazorat shakllari:

Og'zaki nazorat: Savol-javob, interaktiv suhbat orqali o'tkaziladi.

Yozma nazorat: Testlar, insho, imtihonlar kabi yozma ishlar orqali baholash.

Amaliy nazorat: Laboratoriya ishlari, loyihalar yoki amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni kuzatish.

Pedagogik nazoratning ahamiyati:

1. Rivojlantiruvchi vazifa – o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.
2. Motivatsion vazifa – o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
3. Axborot vazifasi – o'qituvchilarga o'quvchilarning yutuqlari va kamchiliklari haqida ma'lumot beradi.

Uzluksiz ta'limda pedagogik nazorat uzluksiz o'quv jarayonining sifatini ta'minlash uchun muhim bo'lib, bilimlarni yanada chuqurlashtirish va o'quvchilarning individual rivojlanishiga yordam beradi.

Uzluksiz ta'limda pedagogik nazoratning ilmiy asoslari haqida turli olimlar o'z tadqiqotlarida pedagogik nazoratning mazmuni, ahamiyati va turlariga oid nazariy va amaliy jihatlarni keng yoritib berganlar. Uzluksiz ta'limda pedagogik nazoratning ilmiy asoslari bo'yicha olimlarning fikriga ko'ra, samarali nazorat va monitoring tizimi o'quv jarayonining sifatini oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik nazorat nafaqat bilimlarni baholash vositasi, balki ta'lim jarayonini takomillashtirishda motivatsiya beruvchi vosita sifatida qaratiladi. Xususan, o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislar, jumladan, A.S. Makarenko, ta'lim va tarbiya bir butun tizim sifatida ishlashi zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, V.D. Shadrikov pedagogik nazoratda bilimlarning mazmuni va nazoratning vazifalariga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va nazorat tizimini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonini muntazam monitoring qilish orqali sifatni yanada oshirish ko'zda tutiladi.

Bunday yondashuv nazoratni faqat baholash vositasi sifatida emas, balki o'quvchilar va o'qituvchilarning doimiy rivojlanishi uchun motivatsion omil sifatida ko'rishga yordam beradi. Pedagogik nazorat uzluksiz ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Olimlar nazarida, bu jarayon o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniq belgilashga yordam beradi hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Y.N. Kulyutkina va P.V. Xudominskiy kabi tadqiqotchilar nazoratni faqat baholash vositasi emas, balki o'quv jarayonini optimallashtiruvchi reflektiv faoliyat sifatida ko'rib chiqadilar. Ularning fikricha, nazorat yordamida o'qituvchilar ta'lim jarayonini to'g'rilab, o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadilar.

Shuningdek, nazorat turli shakllarda – diagnostik, joriy va yakuniy shakllarda olib boriladi. Har bir bosqichda o'quvchilar bilimlarini tahlil qilish va baholash orqali ta'limda uzviylik ta'minlanadi. Bu uzviylik davlat ta'lim standartlariga mos keladigan darajada tashkil etilishi ta'kidlanadi. Ushbu ilmiy yondashuv orqali o'qituvchilar nafaqat o'quv natijalarini nazorat qilish, balki pedagogik faoliyatlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu tarzda, uzluksiz ta'limda pedagogik nazorat ta'lim sifatini oshirishda strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

V.V. Davydov va L.S. Vygotskiyning asarlarida nazorat faqatgina baholash vositasi emas, balki o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish va ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish uchun xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ularga ko'ra, nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o'quvchini shakllantirishga yordam beradi.

B.S. Bloom o'zining “Taksonomiya” (Taksonomiya — ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda shakllantirish va baholashga yordam beruvchi ilmiy asosdir. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning bilim darajasi va ularning o'qib o'rganganlarini qanchalik chuqur tushunganini aniqlash mumkin) nazariyasida ta'lim natijalarini tekshirishda bilim, tushuncha, qo'llash kabi darajalarni bosqichma-bosqich nazorat qilish zarurligini qayd etadi.

A.A. Markova ta'limda nazoratni muntazam olib borish orqali o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish va ularning mas'uliyatini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. U nazoratning motivatsiya beruvchi vosita sifatida ham ahamiyatini ta'kidlaydi.

Sh.A. Amonashvili esa ijobiy pedagogika tarafdori sifatida nazoratni bolaning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantiruvchi tarzda tashkil qilishni tavsiya qiladi. Baholashdan ko'ra, fikr-mulohaza berish jarayoni ustun qo'yilishi kerakligini ilgari suradi.

K. Skinerning ta'lim jarayonidagi uzluksizlik va qayta aloqa tamoyillari asosida o'quvchilar bilan doimiy ishlash orqali bilimni mustahkamlash fikrlari ayniqsa muhimdir. Uzluksiz ta'limda nazoratni bosqichma-bosqich amalga oshirish yangi bilimlarni samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlar, masalan, T. Tursunov va G'. Abduqodirovlar pedagogik nazoratni kompetensiyaga asoslangan ta'limga moslashtirish muhimligini ta'kidlab, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi doimiy muloqot orqali ta'lim sifatini oshirish usullarini taklif qilganlar.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan nazoratning zamonaviy usullari ham paydo bo'lmoqda. G.K. Selevko elektron testlar, masofaviy nazorat va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining ta'limda samaradorligini ko'rsatib bergan. Zamonaviy yondashuvlarda nazorat faqat baholash bilan cheklanmasdan, rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'limda pedagogik nazorat o'quvchi va talabalarning bilimlarini doimiy kuzatib borish, ularni rivojlantirish va ta'lim jarayonini yaxshilash uchun strategik ahamiyatga ega. Olimlarning tadqiqotlari pedagogik nazoratni nafaqat baholash vositasi, balki ta'lim motivatsiyasi va o'quvchini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Action strategy for further development of the Republic of Uzbekistan. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.
2. Mirziyoyev Sh.M. The rule of law is the guarantee of the development of human interests and the well-being of the people. "Uzbekistan", 2017.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to improve the public education management system" (September 5, 2018) No. PF-5538 // <https://lex.uz/docs/3893445>.
4. Aralash ta'limning pedagogik asoslari. Xalmatova Dilobod Alimjanovna attachment=12285 2023 yil
5. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish (oliy ta'lim muassasalari pedagogika misolida) Xalmatova Dilobad Alimjanovna 2023 yil
6. Khalmatova, D. A. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on competence approach. Science and Innovation, 2(5), 219-223.
7. Khalmatova, D. A. (2023). Pedagogical and psychological aspects of mixed education basics. Conference Ural, 1(1), 293-296
8. Xalmatova, D. A. (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education. Konferensiya Ural, 1(1), 297-300.
9. Khalmatova, D.A., Inomova, Z.I. (2023). Independent creativity of students improvement of activities based on competency approach. Conference Ural, 1(1), 289-293.
- 10.. Alimzhanovna, D. Kh., & Kyzi, I. Z. U. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on the competence approach (in the example of pedagogy of higher educational institutions) Science and innovation, 2(Special Issue 5), 290-294
11. Khalmatova, D.A (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education Teacher, 1(7), 253-262

14. Тохинова Лейли Рустамовна Адаптивная образовательная среда как ресурс гуманизации образования в вузах

13. Sharaxmatova A.K., Musurmanov R. Kredit-modul tizimida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish davr talabi / "Муғаллим ҳам узликсиз билимдендириў" ilmiy metodologik jurnali 1/2022. 99-103.

14. Шарахматова А.К., Мусурманов Р. "Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения" / "Образование и наука в XXI веке" международный научный журнал 22(4)/2022. 898-904.

15 Шарахматова А.К. Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения / "Муғаллим ҳам узликсиз билимдендириў" научно-методический журнал 5/3.2022. 100-103

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAMI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA (PD) VA PEDAGOGIK KORREKSIYALASH (PK)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrası
O'qituvchi **Xalmatova Dilobad Alimjanovna.**
Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabalari.
To'raqulova Shaxinabonu To'xtasinovna
Abduvaliyeva Shahzoda Farhod qizi

Anotatsiya

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislashda asosan: tanishish, ilmiy-izlanuv, tadbiriy rasmiylashtiriluvchi bosqichlaridan lborat tajribalarni o'tkazdik. Bunda bolalarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish bilan birga ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishni ham maqsad qilib qo'ydik. 7-11 yoshdagi bolalarni tashxislashda va ularning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilash lozim. Buning uchun diagnostika va korreksiya o'tkazuvchi shaxs mazkur jarayonning tarkibini, uning ta'sir mexanizmini to'laonli bilishi shart.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, pedagogik korreksiya, funksiya, analizator, mexanizm,tabaqalashtirish,didaktik o'yin,guruhiy normalar,adaptatsiya,reablitsiya.

Annotation

In order to diagnose the level of education of the students of junior school age, we conducted an experiment based on the stages of familiarization, scientific research, and practical formalization. In addition to studying the level of upbringing of my child, we also set the goal of social rehabilitation. When diagnosing children aged 7-11 and correcting their behavioral defects, it is necessary to clearly define educational goals. For this, the person conducting the diagnosis and correction must be fully aware of the composition of this process and its mechanism of action.

Key words: pedagogical diagnosis, pedagogical correction, function, analyzer, mechanism, classification, didactic game, group norms.

Аннотация

С целью диагностики уровня образованности детей младшего школьного возраста мы проводили эксперименты преимущественно на этапах ознакомления, научных исследований, практического формализации. Помимо изучения уровня воспитания детей, мы ставили перед собой задачу их социальной реабилитации. При диагностике детей 7-11 лет и коррекции их

Matenova Feruza Maxamatoli qizi THE INFLUENCE OF ROMANTICISM ON MODERN POETRY Тохилова Лейли Рустамовна	138
Кадырова Сабина Нурбековна Муратжанова Фарангиз Муратжановна НЕЙРОБИОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ – КАК ПОНИМАНИЕ РАБОТЫ МОЗГА МОЖЕТ УЛУЧШИТЬ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ И ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ Тохилова Лейли Рустамовна	140
Хикматова Мохигул Хасановна Шокирджонова Асаль Шокирджонова ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ У УЧЕНИКОВ СРЕДНЕ -ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ Tuychiboyev J.I.	143
EKSPERIMENTAL GIPOOTIREOZ MODELIDA JIGAR GOMOGENATIDA OQSIL MIQDORINI ANIQLASH Георгий Борисович Адаев	145
Диана Валерьевна Абдураманова ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ КАК ЯВЛЕНИЕ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ Khonsaidova Maktuba	148
Nasrullayev Suhrob Akmal o'g'li INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH Abdulaxatov A. R	155
Yakupboev Xamidjon Islomboy o'g'li O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA TALABAYOSHLARNI MANAVIY TARBIYALASH MEKANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI Болтаев Шамшод	158
Ураков Азизбек ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЗАСЧЕТ ПРИМЕНЕНИЯ КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li	160
Bebutov To'ymurod Umidjon o'gli KURASHCHILARDA JISMONIY CHIDAMLILIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK ASOSLARI TAHLILI Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li	162
Bebutov To'ymurod Umidjon o'gli KURASHCHILARDA JISMONIY HARAKATLAR ORQALI MASHQLARNI RIVOJLANTIRISH Raximberdiyev Javlonbek Nasriddin o'g'li	164
Xasrakulov I. O'ZBEKISTONDA MALAKALI KURASHCHILAR BELLASHUV FAOLIYATIDA BAHOLAR VA OGOHLANTIRISHLAR TAHLILI Абдулахатов А. Р	167
Матупаев Умидбек Қўзибой ўғли КУРАШ ВА ДЗЮДО ТАРИХИ, ҚОИДАЛАРИ ЎРГАТИШ ХУСУСИДА Abdulaxatov A. R	169
Ibodullayeva Shaxzoda KURASH SPORTNING TA'LIMIY -TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ILMIY ASOSLARI Raximberdiyev J.N.	171
Jasksibayev J. KURASH FALSAFASI VA UNING SHAXS TARBIYASIDAGI O'RNI Raximberdiyev J.N.	174
Kadirkulov A. TARIXIY SHAXSLAR HAYOTIDA KURASHNING O'RNI Raximberdiyev J.N.	176
Raximberdiyeva Ch.B ZAMONAVIY KURASH SPORT TURINING XALQARO QOIDALARINI TALABALARGA PEDAGOGIK O'RGATISH ZARURATI Xalmatova Dilobad Alimjanovna	179
Teshaqulova Baxtigul Shovqiddin qizi Ro'ziboyeva O'lmasoy Yo'ldosh qiz	

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA O'QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHINI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI VA USULLARI	182
Xalmatova Dilobad Alimjanovna Ro'ziboyeva O'lmasoy Yo'ldosh qizi To'raqulova Shaxinabonu To'xtasinovna	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH METODLARI	185
Xalmatova Dilobad Alimjanovna Abduvaliyeva Shahzoda Farhod qizi Teshaqulova Baxtigul Shovqiddin qizi	
UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZORATNI TASHKIL QILISHNING ILMIY ASOSLARI	189
Xalmatova Dilobad Alimjanovna To'raqulova Shaxinabonu To'xtasinovna Abduvaliyeva Shahzoda Farhod qizi	
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAMI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA (PD) VA PEDAGOGIK KORREKSIYALASH (PK)	192
Абдиев Азизбек Султанхужаева Гузаль	
ОСОБЕННОСТИ ЗНАЧЕНИЯ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	194
Абдулложонов Иззатулло Султанхужаева Гузаль	
СОВРЕМЕННАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА	197
Аликулова Назира Султанхужаева Гузаль	
ИМЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНОЕ	200
Алматова Нилуфар Султанхужаева Гузаль	
СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ	202
Асланова Сафия Султанхужаева Гузаль	
СИНТАКСИС И ЕГО КЛАССИФИКАЦИИ	205
Аслонова Ирода Султанхужаева Гузаль	
О ПРОБЛЕМЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	208
Аскаралиева Мухлисахон Султанхужаева Гузаль	
В РОМАНЕ АЛЕКСАНДРА ПУШКИНА «ЕВГЕНИЙ ОНЕГИН» ОБРАЗ ПЕТЕРБУРГА	210
Асхатова Аниса Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ИЗУЧЕНИЕ МЕСТОИМЕН ИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	212
Бегалиева Дилрабо Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ОТЕЛЛО УИЛЬЯМА ШЕКСПИРА	214
Бекова Сабохат Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ	216
Исмоилов Жасурбек Султанхужаева Гузаль	
ОРФОЭПИЯ И ЕЁ СВЯЗЬ С ДРУГИМИ РАЗДЕЛАМИ ЛИНГВИСТИКИ. ИССЛЕДОВАНИЕ НОРМ ПРОИЗНОШЕНИЯ И УДАРЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	219
Маликова Зухра Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ Ф.М ДОСТОЕВСКОГО	220
Мерожиддинова Шодмонхон Арзимова Саёра Нагмет кизи	
СОПОСТАВЛЕНИЕ ДВУХ ЯЗЫКОВ И ВЫЯВЛЕНИЕ НЕОПРЕДЕЛЕННОЙ ФОРМЫ ГЛАГОЛА	223
Мухаммадбекова Гульчирой Султанхужаева Гузаль	

ИЗУЧЕНИЕ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	
Мухторов Яхё	226
Султанхужаева Гузаль	
МОРФОЛОГИЯ КАК ГРАММАТИЧЕСКОЕ УЧЕНИЕ О СЛОВЕ	
Нематова Бибиробия	228
Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ИСТЕМА ИЗУЧЕНИЯ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	
Панжиева Хосият	230
Арзимова Саёра Нагмет кизи	
О НЕКОТОРЫХ ПРИЁМАХ РАБОТЫ НАД НАРЕЧИЯМИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	
Курбанова Тахмина	233
Султанхужаева Гузаль	
ПРИЛАГАТЕЛЬНОЕ КАК ЧАСТИ РЕЧИ	
Куйсинова Нигинабону	235
Арзимова Саёра Нагмет кизи	
ВАРИАНТЫ СУФФИКСОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ	
Ражабов Фароиддин	237
Султанхужаева Гузаль	
УПОТРЕБЛЕНИЕ КАВЫЧЕК ПРИ ЦИТАТАХ	
Ражабова Гулноза	238
Султанхужаева Гузаль	
ЛИНГВИСТИКА КАК НАУКА О ЯЗЫКЕ	
Рузибоев Азизбек	242
Султанхужаева Гузаль	
О РОЛИ ГРАММАТИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	
Рустамова Азизой	243
Султанхужаева Гузаль	
РОМАН-ВОСПИТАНИЕ «ПРЕСТУПЛЕНИЕ И НАКАЗАНИЕ»	
Шабанов Бунёд	246
Султанхужаева Гузаль	
ПОНЯТИЕ О МОРФОЛОГИИ КАК РАЗДЕЛЕ ЛИНГВИСТИКИ	
Темиров Садриддин	248
Арзимова Саёра Нагмет кизи	
«ВЕЧНЫЕ ТЕМЫ» В ДРАМАХ А.Н. ОСТРОВСКОГО	
Юсуфова Норбиой	250
Султанхужаева Гузаль	
СОПОСТАВЛЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА	
Замзамалиева Ризвонби	252
Арзимова Саёра Нагмет кизи	
МОРФОЛОГИЯ. ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ	